

O‘ZBEKISTONDA XX ASRNING OXIRLARIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHATLARNING AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARIGA TA’SIRI

Xolmuminov Xusan Eshmo‘minovich

*Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasini mudiri,
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
xusan_75xolmuminov@mail.ru*

Bobomurodov Islombek Narzulla o‘g‘li,

*Termiz davlat universiteti Tarix mutaxassisligi magistranti
UO‘K: 910.4 (091):94.(584.4)
<https://orcid.org/0009-0003-6634-6020>*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda XX asrning oxirlarida amalga oshirilgan “Qayta qurish” siyosatining aholining ijtimoiy turmush darajasiga ta’siri masalalari ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, ushbu islohotlarning barcha sohalar kabi iqtisodiy madaniy sohalariga ta’siri masalalari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Qayta qurish, KPSS markaziy komiteti, novatorlik, millatchi, internatsionalizm, baynalminalchilik, demografik jarayonlar, iqtisodiy- ijtimoiy jarayonlar.

Аннотация: В данной статье представлен научный анализ влияния политики «Перестройки», проводившейся в Узбекистане в конце XX века, на уровень социальной жизни населения. Также исследуются вопросы воздействия данных реформ на экономическую и культурную сферы, рассматриваемые в контексте общих системных преобразований того периода.

Ключевые слова: Перестройка, ЦК КПСС, новаторство, националист, интернационализм, демографические процессы, социально-экономические процессы.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the impact of the "Perestroika" policy, implemented in Uzbekistan during the late 20th century, on the social standard of living of the population. It also examines the effects of these reforms on the economic and cultural spheres, as well as their broader influence across various other sectors of society.

Keywords: Perestroika, Central Committee of the CPSU, innovation, nationalist, internationalism, demographic processes,

socio-economic processes.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

O‘zbekistonda sovet davrida, ya’ni 1980 yillarga kelib ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi yuzaga kelgan inqiroz, aholi ijtimoiy turmush darajasi, hamda demografik jarayonlariga ham ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan biri bo‘lib hisoblangan. Jumladan demografik jarayonlarda aholining migratsiyasi, ijtimoiy turmush darajasi, hamda aholining keng iste’mol mollari va xizmatlar bilan ta’minlanish bo‘yicha ko‘plab muammoli holatlarning yuzaga keltirdi[12:114]. Bu omillar haqli ravishda serxarajat sovet iqtisodiyotida tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo etardi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Bu davrda siyosat olamida mavjud muammolarni bartaraf etish masalasida 1980-yillarning o‘rtalarida sovet jamiyatida “qayta qurish” islohotlari boshlandi. Qayta qurish KPSS MK Bosh kotibi Mixail Sergeyevich Gorbachyov va KPSS Markaziy Komitetining 1985-yil aprel plenumi bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu jarayon, avvalo, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida to‘planib qolgan inqirozli holatlarni tahlil etishdan boshlandi. Tarixiy nuqtai –nazardan qayd etish joizki, qayta qurish tarixida to‘rtta alohida davr mavjud[13:235-262]:

- 1-bosqich – 1985-yil mart – 1987-yil yanvar. Bu bosqich – “jadallashtirish” va “ko‘proq sotsializm” shiorlari ostida o‘tkazildi. Uning asosiy maqsadi sifatida iqtisodiyotni intensivlashtirish va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni tezlashtirish belgilandi;

- 2-bosqich – 1987-yil yanvar – 1988-yil

iyun. Bu bosqich – “ko‘proq demokratiya” va “ochiqlik” shiorlariga asoslandi.

- *3-bosqich – 1988-yil iyun – 1991-yil sentyabr*. Bu bosqich – “chalkashlik va inqiroz” davri bo‘lib qayta qurishning sobiq lageridagi bo‘linish, ochiq siyosiy, milliy qarama-qarshilikka o‘tish, iqtisodiy tanglik, mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi;

- *4-bosqich – 1991-yil sentyabr-dekabr*. Bu bosqich ko‘p holatlarda “qayta qurish”ning tarkibiy qismi sifatida ham qabul qilinmaydi. Bu vaqtda SSSR davlati mavjud bo‘lsada, amalda qismlarga ajralib ketgan, tizimning yemirilishi to‘liq namoyon bo‘lgani bilan ajralib turadi.

Tarixiy ma’lumotlarga to‘xtalar ekanmiz, 1980-yillarida butun sobiq SSSR hududida yillar mobaynida to‘plangan muammolarni hal etish uchun bu islohotlar loyihasi ishlab chiqildi[11:54]. Ya’ni bunda 1985-yil aprel Plenumi yo‘l ochib bergan qayta qurishning strategik maqsadi aholining moddiy farovonligi va madaniy turmushini yuksaltirish, sotsial adolat prinsipini amalga oshirish, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, sovet jamiyatining sinf, qatlam va guruhlarini uyg‘unlikda rivojlantirishni o‘z ichiga olgan keng vazifalarni kompleks tarzda hal etish vazifalari ko‘zlangan.

Tarixiy jarayonlardan ma’lumki, sovet davrida ijtimoiy-iqtisodiy, qishloq xo‘jaligi va sanoatda olib borilgan islohotlar asosan markazning har tomonlama qudratini oshirishga xizmat qilgan. Iqtisodiyotning bir tomonlama rivojlanishi, ishlab chiqarish sohalarining faqat birlamchi qayta ishlov jarayoniga moslashtirilganligi, yuqori bo‘g‘in boshqaruv tizimi va yetakchi sohalarining noyob mutaxassislari asosan markazdan yuborilgan kadrlar vositasida shakllantirilganligi, aholining real ehtiyojlarini inkor etgan holda markazdan belgilab berilgan yillik rejalar asosida ish ko‘rilishi, qishloq xo‘jaligidagi asosiy e’tibor paxta xom ashyosining yig‘im-terimiga moslashtirilishi asosiy omillar sifatida belgilangan. Shuningdek, tabiiy resurslarning hisobsiz ishlatilishi natijasida turli ekologik muammolarning avj olgani – bularning barchasi XX asrning 80-yillarida respublikadagi ijtimoiy vaziyatni og‘ir

bo‘lishiga olib kelgan sabablardan hisoblanadi[6].

Natijada yuzaga kelayotgan bunday muammolar Ittifoq tarkibida bo‘lgan O‘zbekiston uchun ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Albatta, bu yillardagi yuzaga kelgan muammolar aynan 1980-yil o‘rtalariga kelibgina o‘z-o‘zidan vujudga kelgan emas, balki buning tub ildizlari mavjud bo‘lib, ular yillar mobaynida respublikaning mavjud imkoniyat va manfaatlarini inobatga olmasdan olib borilgan siyosat natijasida yuzaga kelgan edi. Mohiyatiga ko‘ra Ittifoq respublikalarini iqtisodiy birlashtirish ostida ham iqtisodiy, ham siyosiy maqsadlar qaror toptirildi. Natijada, mintaqalararo aloqalarda shunday bir zanjir vujudga keltirildiki, unda respublikalarning emas, balki markazning manfaatleri aks ettirildi[4:120]. Ittifoq tarkibidagi respublikalarni ma’lum bir soha bo‘yicha ixtisoslashtirish siyosati amalga oshirilib, unga ko‘ra iqtisodiy rayonlarga bo‘lingan respublikalar bir mahsulotni yoki mahsulotning bir turini, hatto mahsulotning ma’lum bir qismini ishlab chiqarishga ixtisoslashishi kerak edi. Respublikalarning bir qismi xom ashyo yetishtiruvchi, boshqalari esa sanoat mahsuloti ishlab chiqaruvchi hududlarga ixtisoslashtirildi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston paxta yetishtiruvchi baza sifatida shakllantirildi va paxta ekin maydonlari yildan yilga ko‘paytirib borildi[10].

Bu davrdagi iqtisodiy tanglik o‘z navbatida ta’lim sohalariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Garchi bu davrda o‘qituvchi pedagogik xodimlarni o‘z kasbidan ortiqcha ishlardan ozod etilishi haqida gapirilsa-da, amalda esa mutlaqo boshqa ishlar amalga oshirilgan. Shuningdek, bu davrlarga kelib maktablarda oliy toifali o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, o‘qituvchilar, shifokorlarga bo‘lgan ehtiyoj muttasil o‘sib borgan[1].

Har qanday sohadagi sifat va samaradorlik uzluksiz mashq, muttasil mehnat, doimiy izlanish natijasida yuzaga keladi. Bu gap maktab ta’limiga ham to‘la taalluqli. O‘rta maktab mashg‘ulotlarining qatqaloq sindirish, g‘o‘zani yaganalash va o‘toq qilish, pilla terish, paxta terish kabi qishloq xo‘jalik ishlari tufayli tez-tez bo‘linib turishi yoshlarning ta’lim olish jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 1989-

yil aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda 19 905 000 aholi istiqomat qilgan bo'lsa, bunda oliy ma'lumotli aholining ulushi 0.038 foizni tashkil etgan[3]. Ta'lim sohasidagi mavjud bo'lgan muammolardan yana biri bu maktabgacha ta'lim muassasalarining yetarli darajada bo'lmaganligi. Jumladan ma'lumotlarga ko'ra 1987-yili respublikadagi bolalar muassasalariga 7 yoshgacha bo'lgan jami bolalarning atigi 34,5 foizini qamrab olgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari qurish borasidagi ishlariga ham yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Barcha mavjud muammolar qatorida barcha sohalarini isloh qilish maqsadli va malakali kadrlar tayyorlash masalalariga ham yetarli darajada e'tibor qaratilmadi. Bu davrda ziyoli qatlam aholini ko'paytirish kabi o'ziga xos boshqaruvdan ko'zlangan maqsad jamiyatda ilm yog'dusini taratish, millat ma'naviyatini oshirish, ozlikni anglash emas, butun sobiq ittifoq davlatlarida yagona millat g'oyasini targ'ib qilish, asrlar davomida sayqallanib kelgan millatlar tarixini unuttirish bo'lganligini achinarli holatlardan biri bo'lgan[4:120].

Bu davrda amalga oshirilgan islohotlar go'yoki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish yo'li deb qaralgan bo'lsada, mamlakatdagi real ahvolning murakkabligi

chuqur anglab yetilmadi. Barcha sohalar kabi, aholining ijtimoiy turmush darajasidagi muammolar, iqtisodiyotni rivojlantirishda, umuman ko'plab sohalarida markazning rahbarlik roli va markazlashtirish siyosatidan amalda voz kechilmadi. Bu keyingi yillarda ham sotsializm "afzallik"laridan foydalangan holda jamiyatni rivojlantirishga umid bog'lash edi. Biroq, ularning barchasi real hayotda o'z samarasini bermadi. Chunki, qaror topgan mavjud tizimdan voz kechmagan holda o'tkazilgan qayta qurish siyosati bilan ham ko'zlangan natijalarga erishib bo'lmadi va amalda ham shunday bo'ldi. Aksincha, qayta qurish yillarida mablag'larning samarasiz yo'naltirilishi sarf-xarajatlar miqdori keskin ko'payib ketishi davlat byudjetiga katta zarar keltirdi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Natijada mamlakatdagi ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimi iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishda, asosan, bir yoqlama yo'ldan bordi. O'zbekiston asosan paxta xom ashyosi yetishtirishga ixtisoslashtirilganligi yerlarning o'zlashtirilishi, mavjud resurslardan samarasiz foydalanish ularning barchasi o'z navbatida aholining ijtimoiy demografik holatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bo'ldi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. R.Aminova. Qayta qurish sharoitida O'zbekistonda sotsial rivojlanishning dolzarb muammolari. Fan. 1991-yil.
2. Материалы XXVII съезда Коммунистической партии Советского союза М. 1986.
3. Ikrom Rasulov. Qayta qurish va muallim. "Sharq yulduzi" jurnali, 1988 yil, 6-son.
4. Узбекская ССР в цифрах в 1988 г. Ташкент, 1989, — С. 120.
5. Alikhan Aman. Population migration in Uzbekistan (1989-1998). Toshkent. 1999-yil.
6. Daromad va buromad. Fan va turmush (6-89). 1989-yil iyun.
7. Lenin bayrog'i. 1989-yil, 12-iyul. N133. (15. 407).
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston. Toshkent. 2021-yil.
9. R.Murtazayeva. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Toshkent: Mumtoz so'z. 2019-y. — B. 230.
10. Ўз МА, Р-2806-фонд, 1-рўйхат, 11-иш, 114-варақ.
11. Ражабов Қ. Қайта қуриш ва унинг Ўзбекистонда янги сиёсий-мафкуравий вазиятнинг шаклланишига таъсири // Илмий хабарнома журнали, АДУ. 2014. — №2. — Б. 54.
12. Зиядуллаев С.К. Экономика Узбекской ССР в условиях перестройки. — Т.: Фан, 1988; — С. 114.
13. Полюнов М. Ф. Исторические предпосылки перестройки в СССР. 1946-1985 гг. — СПб.: Альтер Эго, 2010. — С. 235-262.